

"CHET TILLARNI O'QITISH METODIKASIDA NUTQNING IJTIMOY-  
PSIXOLOGIK AHAMIYATI VA KLASSIFIKATSIYASI"

Zaripova Sohiba

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, BUXDPI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarni o'qitish metodikasida nutqning ijtimoiy-psixologik ahamiyati va uning klassifikatsiyasi o'rganiladi. Nutqning kommunikativ jarayonlardagi roli, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni va psixologik omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqning turli klassifikatsiyalari, jumladan, funksional, mazmuniy va shakliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada pedagoglar uchun nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va strategiyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, chet tillarni o'qitish metodikasi, ijtimoiy-psixologik ahamiyat, kommunikatsiya, o'quvchilar ko'nikmalari, nutq klassifikatsiyasi, ta'lim metodlari, psixologik omillar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается социально-психологическая значимость речи в методике преподавания иностранных языков и её классификация. Анализируется роль речи в коммуникативных процессах, её влияние на формирование социокультурных навыков учащихся, а также влияние психологических факторов. Также рассматриваются различные классификации речи, включая функциональные, содержательные и формальные аспекты. В статье предлагаются эффективные методы и стратегии для педагогов, направленные на развитие речи.

**Ключевые слова:** речь, методика преподавания иностранных языков, социально-психологическая значимость, коммуникация, навыки учащихся, классификация речи, методы обучения, психологические факторы.

**Annotation:** This article explores the socio-psychological significance of speech in foreign language teaching methodology and its classification. It analyzes the role of speech in communicative processes, its impact on the formation of students' sociocultural skills, and the influence of psychological factors. Various classifications of speech, including functional, semantic, and formal aspects, are also examined. The article presents effective methods and strategies for educators aimed at developing speech.

**Keywords:** speech, foreign language teaching methodology, socio-psychological significance, communication, students' skills, speech classification, teaching methods, psychological factors.

Nutq-ma'lum qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmalari orqali odamlar o'rtasida tarixan shakllangan muloqot shakli hisoblanadi. Nutq jarayoni, bir tomondan, til (nutq) vositalari orqali fikrni shakllantirish, ikkinchi tomondan, til tuzilmalarini idrok etish va ularni tushunishni o'z ichiga oladi.

Nutq og'zaki muloqot turi hisoblanadi. Shunday qilib, nutq psixolingvistik jarayon, inson tillari mavjudligining og'zaki shaklidir. Insonning o'tmishda ham, hozirgi paytda ham umuminsoniy tajribasidan foydalanishga imkon bergan eng muhim yutug'i mehnat faoliyati asosida rivojlangan nutq aloqasi edi.

Nutq harakatdagi tildir<sup>29</sup>.

Muloqot shakliga ko'ra nutq faoliyati og'zaki (gapirish va tinglashni nazarda tutuvchi) va yozma (yozma va o'qish) ga bo'linadi.

Og'zaki va yozma nutq farqi. Har qanday til ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: og'zaki va yozma. Tabiiyki, tilning og'zaki shakli yozma shaklidan farq qiladi. Bunda ko'pincha so'zlashuv tiliga xos so'z va iboralarga e'tibor beriladi. Biz og'zaki nutqda ko'p hollarda ba'zi so'zlarni qisqartirib berilganini va turlicha talaffuz etilganini ko'ramiz. Ingliz tilida: It's no use; don't be silly; you'd better mind your bussines; I do wish mum; I'd brought my camera; so what's wrong? Sorry, the bridge is out of order etc.; O'zbek tilida: -ob-ke (olib kel), jichcha(ozgina), obor (olib bor).<sup>30</sup> Og'zaki nutqda undovlar, ayniqsa, so'zlashuv uslubiga xos so'z birikmalari ko'p ishlatiladi. Masalan: How about the bags!

Ammo shuni ham takidlash lozimki og'zaki nutqning ham, yozma nutqning ham o'z talablari, imkoniyat doirasi bor. Og'zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og'zaki nutq qo'llanilish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi.

Og'zaki nutqda shevachilik ta'siri sezilib turadi. Og'zaki nutq tezkor, avtomatik jarayon bo'lganligi sababli o'ylab turish, so'ng so'zda davom etish qiyin. So'zlov va o'ylov bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Og'zaki nutq shaxsiy, individual faoliyatdir.

Shuning uchun ham fikriy va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir biriga o'xshayvermaydi Og'zaki nutq uslubi uchun talaffuzning ba'zi xususiyatlari masalan, so'zlarning kuchsiz formalari ham xosdir; yozma nutq uslubida qo'llanadigan ingliz tilidagi shall not, will not, can not formalari o'rnida odatda shan't, won't formalari qo'llaniladi.<sup>31</sup>

Yozma nutq ham og'zaki nutqqa o'xshab aloqa vazifasini bajaradi. Biroq og'zaki va yozma nutqlarda fikr almashish har xil usul va vositalar bilan amalga oshiriladi. Og'zaki nutq aniq tovushlarga suyanadi. Yozma nutq yozuv belgilari (harf) yordamida chizma (grafik) shaklida tasvirlanib, ularning har biri og'zaki nutqning ayrim tovushlarini bildiradi.

Yozma nutq jamiyat tarixida va kishilar hayotida ham og'zaki nutqdan so'ng vujudga keladi va uning asosida shakllanadi. Yozma nutqning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir:

Yozma nutq og'zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta- qayta tahrir qilishi, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin. Shuning uchun ham yozma nutq og'zaki nutqdan ravondir. Og'zaki nutq faoliyati sifatida juda murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, uning asosini bosh miya qobig'i birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro aloqasi tashkil etadi.<sup>32</sup>

Masalan: Dear Hiring Manager,

I am writing to express my interest in the Marketing Specialist position at your company.

<sup>29</sup> Vygotskiy L. S. Fikrlash va nutq / Tahrirlangan va V. Kolbakovskiyning kirish maqolasi bilan. - M. : Davlat ijtimoiy-iqtisodiy nashriyoti, 1934. - 326 b.

<sup>30</sup> Nikolaev, V.V. Til va nutq estetikasi. L.: Nauka, 1979. - 216 b.

<sup>31</sup> J. Jalolov "Chet tilini o'qitish metodikasi".

<sup>32</sup> Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2008. - 304 b.

With over three years of experience in digital marketing and a proven track record of increasing brand visibility, I am confident in my ability to contribute to your team.

Ushbu yozma nutqdagi matn rasmiy uslubda yozilgan bo`lib, yozma nutq xususiyatlarini o`z ichiga oladi. Matnda gapva so`zlar ketma ketligi grammatik jihatdan to`g`ri tanlangan va professional ifodalar o`z ornida qo`llanilgan.

Ushbu yozma nutq qisqa, ammo, aniq t ifodalangan. Ammo, nutqning bu shaklida yozuvchi no`z fikr mulohazalarini cheklangan so`z miqdori tufayli to`liq ifodalay olmasligi mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, nutqning har ikkala turi muloqot jarayonida muhim rol o`ynaydi. Rasmiylik va aniqlik yozma nutq uchun zarur bo`lsa, og`zaki nutq tezkorlik va hissiy muloqot uchun asosiy vosita hisoblanadi. Nutqning yozma va og`zaki turi madaniy va ijtimoiy vaziyatlarda o`ziga xos ahamiyatga ega. Kommunikatsiya jarayonining muvffaqiyatli bo`lishini ta`minlash uchun ikkala nutq turini ham samarali qo`llash zarur. Shu bois, og`zaki va yozma nutqni rivojlantirish ta`lim jarayoinida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAT RO`YXATI:

1. Jalolov J. Chet tilini o`qitish metodikasi.
2. Nikolaev, V.V. Til va nutq estetikasi. L.: Nauka, 1979. - 216 b.
3. Shodiyeva Q. Nutq o`stirish uslubiyoti. Toshkent: "O`qituvchi" NMIU, 2008. - 304 b.
4. Vygotskiy L. S. Fikrlash va nutq. Tahrirlangan va V. Kolbakovskiyning kirish maqolasi bilan. - M.: Davlat ijtimoiy-iqtisodiy nashriyoti, 1934. - 326 b.